



## QURILISH ISHLARI

2020- yil yanvar-iyun oylarida

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami 984,8 mld. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,4 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 7,8 mld. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 32,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 887,0 mld. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 90,1 % ni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,7 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 90,0 mld. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 72,6 % ni tashkil qildi.



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu-o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,4 % ni tashkil eti.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,0 % to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlaringin faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2019- yil yanvar-iyun

11,0



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

17,4



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

71,7



Binolar va  
inshootlarni qurish

11,0



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

17,4



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

71,6



Binolar va  
inshootlarni qurish



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.*



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi


*(mlrd. so‘m)*

|                          | Jami qurilish<br>ishlari | shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha |                                       |                    |
|--------------------------|--------------------------|---|---------------------------------------|--------------------|
|                          |                          | yirik<br>qurilish<br>tashkilotlari              | kichik korxona<br>va<br>mikrofirmalar | norasmiy<br>sektor |
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>984,8</b>             | <b>7,8</b>                                      | <b>887,0</b>                          | <b>90,0</b>        |
| <i>shaharlar</i>         |                          |   |                                       |                    |
| <b>Guliston</b>          | <b>292,8</b>             | <b>7,2</b>                                      | <b>268,9</b>                          | <b>16,7</b>        |
| <b>Shirin</b>            | <b>53,6</b>              | -   | <b>52,4</b>                           | <b>1,2</b>         |
| <b>Yangiyer</b>          | <b>94,6</b>              | -   | <b>90,6</b>                           | <b>4,0</b>         |
| <i>tumanlar</i>          |                          |   |                                       |                    |
| <b>Boyovut</b>           | <b>87,5</b>              | <b>0,3</b>                                      | <b>78,9</b>                           | <b>8,3</b>         |
| <b>Guliston</b>          | <b>55,1</b>              | -   | <b>46,1</b>                           | <b>9,0</b>         |
| <b>Mirzaobod</b>         | <b>82,4</b>              | -   | <b>78,1</b>                           | <b>4,3</b>         |
| <b>Oqoltin</b>           | <b>80,0</b>              | -   | <b>75,6</b>                           | <b>4,4</b>         |
| <b>Sardoba</b>           | <b>31,5</b>              | -   | <b>25,5</b>                           | <b>6,0</b>         |
| <b>Sayxunobod</b>        | <b>38,4</b>              | <b>0,1</b>                                      | <b>33,4</b>                           | <b>4,9</b>         |
| <b>Sirdaryo</b>          | <b>97,9</b>              | <b>0,1</b>                                      | <b>72,6</b>                           | <b>25,2</b>        |
| <b>Xovos</b>             | <b>71,1</b>              | <b>0,1</b>                                      | <b>64,9</b>                           | <b>6,0</b>         |



## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o’sish sur’ati 94,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Guliston tumanida 99,9 % tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o’sish sur’ati Oqoltin tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’ati 96,3 % ni tashkil qildi.




## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo‘yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 887,0 mld. so‘m yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 90,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 97,7 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 7,8 mld. so‘m yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 32,8 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 90,0 mld. so‘m yoki jami qurilish ishlarining 9,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 72,6 % ni tashkil qildi.






## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Davlat mulkchilik shakli



Nodavlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 57,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,9 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 927,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,1 % ni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga ko‘payish) tashkil qildi.

2020-yil  
yanvar-iyun



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 29,7 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 9,9 %, Yangiyer shahriga 9,6 %, Boyovut tumaniga 8,9 % va Mirzaobod tumanida 8,4 % dan to‘g‘ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo‘limi.

Aloqa telefonи: (67) 225-02-37  
(67) 236-86-27

